



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUI USTIDAN NAZORAT  
QILISH INSPEKSIYASI BOSHIG‘INING  
BUYRUG‘I**

2023-yil «13» aprel

UM-3-23

**Hay‘at qarorini ijroga qaratish haqida**

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zagroinspeksiya to‘g‘risida”gi nizomning 24-bandiga asosan

**B U Y U R A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya Hay‘atining 2023-yil 10-apreldagi 4-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zagroinspeksiya” boshlig‘i o‘rinbosari, markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari, tumanlar (Quvasoy shahar) bo‘limlari hamda Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi rahbarlari:

Hay‘at qarorida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida sifatli ta‘minlasin;

Hay‘at qarori yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yig‘ilish bayonida belgilangan muddatlarda Inspeksiyaning Axborot tahlil, ijro intizomi va ma‘muriy amaliyot boshqarmasiga kiritilsin.

Chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan mas‘uliyat va shaxsiy javobgarlik barcha darajadagi rahbarlar zimmasiga yuklansin.

3. Axborot tahlil, ijro intizomi va ma‘muriy amaliyot boshqarmasi (J.Mirsaidov):

ushbu buyruq va O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya Hay‘atining 2023-yil 10-apreldagi 4-son qarorini ijro uchun Inspeksiyaning tarkibiy va hududiy bo‘linmalariga hamda tizim tashkilotlariga yetkazsin;

Hay‘at qarori yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Hay‘at raisiga axborot kiritilsin;

Hay‘at qarori ijrosi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

**Boshliq**  
Toshkent sh.

**A. Vaxabov**